



BIR QO'LIDA QALAM, BIR QO'LIDA YAROG' TEBRATGAN SIYMO

Abillayeva Dilshoda Kuralbay qizi¹

¹Ajinyoz nomidagi pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti
o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-V bosqich talabasi.

Xushanov Alisher Oydin o'g'li²

²Ajiniyoz nomidagi NDPIning Turkiy tillar fakulteti, O'zga tilli
guruhlarda o'zbek tili 4-bosqich talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7220508>

ARTICLE INFO

Received: 27th September 2022

Accepted: 01st October 2022

Online: 03rd October 2022

KEY WORDS

Bobur, " Boburnoma ",
temuriylar, taxt, Hindiston,
Humoyun.

ABSTRACT

*Ushbu maqolada xalqimizning suyuqli shoiri va sarkardasi
Zahiriddin Muhammad Boburning mashaqqatli hayot
yo'lida yuzaga kelgan she'rlari haqida fikr yuritiladi.*

Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti mashaqqatli bo'lgan. U erta taxtga o'tiradi, yaqin insonlari xiyonat qilishadi, vatanidan uzoqda yashashga majbur bo'lgan. U butun umri davomida bobosi Amir Temur saltanatini qayta tiklashni orzu qilib yashaydi va bir muddat bobosi Amir Temurning taxtiga o'tiradi, ammo Buxoro xoni Ubaydulla bilan bo'lgan jangda mag'lubiyatga uchraydi. Bobur "Boburnoma" sida mag'lubiyatini shunday ta'riflaydi.

"G'ofil u yerdan quvilgan va bu yerdan ayrilgan". Bobur o'sha payti Andijondan ham ayriladi. Hech bir shoir Vatandan yiroqlik fojiasini Boburchalik ko'ptomonlama va ta'sirchan ifodalay olmagan bo'lsa kerak.

Tole' yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi,
Har ishniki ayladim xatolig' bo'ldi.
O'z yerni qo'yib, Hind sori yuzlandim,
Yo rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi?!
Bobur suyuqli opasi Xonzodabegim xohishiga qarab Ahmad Tanbaldek yovuz odamga turmushga berishga qarshi chiqib

opasini Ahmad Tanbalga turmushga bermaydi. Ammo, vaqt o'tib Xonzodabegim ukasi Boburni qutqarish uchun Shoyboniyxonga turmushga chiqadi. Xonzodabegimning o'gli Xurramshoh tashqi ko'rinishi Shoyboniyxonga o'xshasada, Bobur jiyanini Shoyboniyxon avlodi bo'lishiga qaramay yaxshi ko'rardi. Temuriylar avlodi Zahiriddin Muhammad Bobur 1483- yil 14-fevralda Andijonda tavallud topgan. Boburning otasi Umarshayx Mirzo temuriylar avlodi Abu Sayid Mirzoning to'rtinchi o'g'li hisoblanadi. Bobur otasi vafot etganligi sababli o'n ikki yoshda taxtga chiqadi. Bobur o'zi haqida " Boburnoma " asarini yaratadi uning dastlabki nomi " Vaqoyi" deb nomlangan. " Boburnoma " dagi voqealar uch qismga bo'linadi. Boburning Movaronnahr (1494- 1504) Afg'oniston (1504- 1524) Hindiston (1524- 1530) dagi hukmronlik davrlarga bo'linadi. Bobur 200- 300 navkarlari bilan qorli tog'larni bosib o'tishgan. Bobur bu yo'ldan Qosimbekning qaysarligi sababli yurishadi.



Bobur bu yo'lda kechgan mashaqatlarini shunday ta'riflaydi:

Charxning men ko'rmagan javr-u jafosi qoldimu?

Xasta ko'nglim chekmagan dard-u balosi qoldimu?

Bobur "Boburnoma " sida " Garchi katta qorda bir necha kun tashvish ko'rgan bo'lsak-da, lekin oxiri ushbu katta qor tufayli o'zimizni manzilga yetkizdik. Chunki bunday katta qor bo'lmasa, o'shanday yo'lsiz uchma va sekirtmadan kim o'ta olardi?! Ehtimol katta qor bo'lmasa, avvalgi uchmadayoq barchaning ot va tuyasi batamom qolib ketgan bo'lardi.

Har neku badeki dar shumorast,

To darnigari salohi korast.

(Mazmuni:

Har bir yaxshi- yomonlikni mulohaza qilib ko'rsang, hayot uchun xayrli ishlarga sabab bo'ladi"- deb yozgan. Bobur o'zi haqida yolg'on xabar tarqatgan Husayn mirzoni kechirib uni ozod qiladi. Ammo Boburning yaxshiligiga yaxshilik qilish o'rniga Shoyboniyxoning yoniga borib Boburni g'iybat va shikoyat qiladi. Lekin, oz fursat o'tmay Shoyboniyxon uni o'ldirib yuboradi. Bobur bu haqida shunday deb yozgan edi.

Tu bad kuandayi xudro ba ro'zgor supor,

Ki ro'zgor turo chokarest kinaguzor

(Ma'zmuni:

Sen o'zinga yomonlik qilgani hayot izmiga topshir, bil hayot qasoskor mulozimingdir.)

Zahiriddin Muhammad Bobur farzandi Humoyun Sanbalda olti oy yashaydi ammo unga u joyning yeri va suvi yoqmaydi. Uni isitma tutadigan bo'ldi. Bora- bora bu cho'ziladigan bo'ldi. Bobur buni eshitishi bilan Humoyunni Dehliga olib kelishlarini u yerdan kemaga solib olib kelishlariga farmon beradi. Humoyunga har qancha dori- darmonlar qilishsa ham u yaxshi bo'lmaydi. Boburga ulug' kishilardan Mir

Abdulqosim bunday dardlarga biror yaxshi narsani sadaqa qilib berish kerak shunda Tangri taolo shifo beradi, deb aytadi. Bobur o'z ko'nglidan shularni o'tkazadi.

"Humoyuning mendan boshqa yaxshi narsasi yo'q. Men o'zim unga tasadduq bo'layin , Xudo qabul qilsin, "-deb aytadi. Boburga Xoja Xalifa va boshqa yaqinlari : Humoyun sihat topadi nega tilingizga bu so'zlarni oldingiz ? Ibrohim bilan bo'lgan jangda qo'lga kiritilgan olmosni Humoyunga in'om qilgan edingiz o'shani sadaqa qilish kerak deyishadi. Ammo Bobur boshqacha fikrda edi . Humoyun uchun dunyo molidan yaxshisini sadaqa qilish kerak. Humoyun juda mushkul ahvolda qolibdi men unga o'zimni fido qilaman deb javob beradi. Bobur Humoyuni uch marta aylanib " Har qancha darding bo'lsa, oldim " dedi . Shundan so'ng Bobur og'irlashadi, Humoyun yengil bo'ladi. Humoyun oyoqqa turgach Bobur yiqiladi va o'z qo'llari bilan obod qilgan Chohorbog'da bevafo olamni tark etadi.

Xulosa qilib aytganda bobomiz Boburni yetuk inson deb aytishimiz mumkin. Bobur shoir, adib, olim, sarkarda, yirik davlat arbobidir. Boburning yetuk sarkarda bo'lishiga yana bir sabab uning qonida ikki sarkardaning qoni qo'shilgani uchun Bobur ota tomondan Temuriylar avlodi bo'lsa ona tarafdan Chingizxoning avlodi hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlaganimdek Bobur Mirzo o'n ikki yoshda taxtga o'tiradi. Bobomizni hozirgi yoshlar bilan taqoslasak hozirgi yoshlarimiz katta mamlakat u yoqda tusin bitta oilani tebratolmaydigan oilasiga, vataniga nafi tegmaydigan yoshlarimizni afsuski, yo'q deb bo'lmaydi. Hozirgi yoshlarimizni tarixdagi voqealar emas hozirgi zamonaviy telefon yana hokazolar qiziqtiradi va shular bilan vaqtini band qilishadi. Mening bu asarni



tanlashimnan maqsad hozirgi yoshlarimizni to'g'ri yo'lga yo'naltirishda bobomiz Zahiriddin Muhammad Boburdek shaxslarni ularga o'rnak sifatida ko'rsatib ularni ilm olishga chorlashimiz kerak. "

Boburnoma " ni shunchaki asar deb emas, balki, buyuk bir insoning hozirgi yoshlarimizga o'rnak bo'ladigan hayot yo'li deb qarashimiz mumkin.

References:

1. Boqijon To'xliyev, Bahodir Karimov, Komila Usmonova Darslik 10- sinf 1- qism adabiyoti Toshkent 2017-yil.
2. Z.M.Bobur " Boburnoma " Toshkent 2017- yil